



“AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANIDAN TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARI SAMARADORLIGI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Axrarov B.S.

p.f.f.d (PhD)

“Zamonaviy axborot texnologiyalari” kafedrasida dotsenti

O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti, Toshkent

e-mail: barsa1954@yandex.ru

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8058349>

ARTICLE INFO

Received: 12th June 2023

Accepted: 19th June 2023

Online: 20th June 2023

KEY WORDS

Mustaqillik, mustaqil ish, mustaqil ishlashga tayyorlik, faoliyat, motivatsiya, pedagogik shart-sharoitlar, maqsadlar, ko‘nikmalar.

ABSTRACT

Maqolada bakalavriyatning “Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar” yo‘nalishidagi 1-bosqich talabalariga o‘qitiladigan “Axborot texnologiyalari” fani bo‘yicha mustaqil ishlarini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, ularning mohiyati va mustaqil ishni bajarish bosqichlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kirish. Jahonda oliy ta‘lim tizimini rivojlantirishning yo‘nalishlaridan biri sifatida talabalarning mustaqil ishi ulushini oshirish va asosiy e‘tiborni talaba o‘quv axborotlarining passiv iste‘molchisidan o‘quv jarayonining faol, mustaqil sub‘ekti pozitsiyasiga o‘tishga qaratish tendensiyasi kuzatilmog‘da. Shu munosabat bilan ta‘limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvga o‘tish bilan mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalari tizimini shakllantirish, talabalarning mustaqil faoliyat madaniyatini tarbiyalash zarurligi ayon bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy oliy ta‘lim muassasasi bitiruvchilarining raqobatbardoshligi ularning kasbiy malakasining muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, ko‘p jihatdan ularning o‘z bilimlarini doimiy ravishda oshirib borish motivatsiyasi va tayyorgarligi bilan belgilanadi. Kasbiy faoliyat bilan bog‘liq vazifalarni mustaqil va muvaffaqiyatli bajarish qobiliyati mutaxassis shaxsining eng muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, u bilimlarni doimiy ravishda to‘ldirib borishga undovchi motivatsiyada, o‘z faoliyatini oqilona rejalashtirish va tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirishda namoyon bo‘ladi.

Talabaning *mustaqilligi* uning o‘z oldiga belgilangan maqsadlarni qo‘yish, unga erishish va amalga oshirishga intilishida namoyon bo‘ladi. Talabaning mustaqilligini rivojlantirish unga mustaqil ishlash ko‘nikmalarini egallash, shuningdek, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Psixologik tadqiqotlarda mustaqillik masalalari shaxsni rivojlantirish, uning o‘z-o‘zini anglashi, faolligi va faoliyati tub muammolari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. S.L. Rubinshteyn mustaqillikni insonning hayotdagi mavqei belgilaydigan, o‘z faoliyatini rejalashtirish, tartibga solish va faol amalga oshirish qobiliyatini tavsiflovchi eng muhim xususiyati deb hisoblaydi [1, 648 b.].



Pedagogikaning zamonaviy lug'atida *mustaqillik* - o'z oldiga aniq maqsad qo'yish, uni mustaqil ravishda amalga oshirishga qat'iyat bilan erishish, o'z faoliyatiga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, nafaqat tanish vaziyatda, balki nostandart qarorlarni talab qiladigan yangi sharoitlarda ongli va faol harakat qilish qobiliyati sifatida izohlanadi [2, 689 b.].

A.I. Savenkov mustaqillikni izlanishda faollik belgilariga ega bo'lgan insonlarni tavsiflovchi shaxsiy fazilat deb hisoblaydi. Olim mustaqillik tushunchasi tarkibidagi uch komponentni ajratib ko'rsatadi, ya'ni: "... birinchidan, bu fikr-mulohaza yuritish va harakatlarning mustaqilligi, muhim qarorlarni boshqalar yordamsiz qabul qilish qobiliyati; ikkinchidan, o'z harakatlari va ularning oqibatlarini uchun mas'uliyatlilik, uchinchidan, bunday xatti-harakatni amalga oshirish mumkinligi va to'g'riligiga bo'lgan ichki ishonch" [3, 136 b.].

Pedagogikada o'z-o'zini tarbiyalash, shaxsning mustaqil ta'lim olishi masalalari A.Y.Ayzenberg [4], S.V.Yudakova [5], mustaqil ishning turli jihatlarini B.P.Esipov, M.A.Danilov, P.I. Pidkasistiy, A.K.Gromseva [6], I.A. Zimnyaya [7], O.B. Tomashevskaya, N.A. Malinovskaya [8], I.V. George [9] va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Talabalarning o'z-o'zini tarbiyalash shakllaridan biri sifatida mustaqil ishlarga bag'ishlangan ko'plab nashrlarga qaramay, uni rejalashtirish va tashkil etish metodikasi, innovatsion shakllarining samaradorligi kasbiy ta'lim nazariyasida yetarlicha o'rganilmagan. Bunday tadqiqotlarni olib borish ayniqsa, o'quv jarayonida kompetensiyali yondashuvni amalga oshirish nuqtai nazaridan juda ham muhim.

Asosiy qism. Har qanday oliy ta'lim muassasasining vazifasi talabalarga fanlarni o'qitish orqali ularga ma'lum miqdordagi bilimlarni yetkazish emas, balki asosiysi ularni mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga o'rgatish, kelajak kasbiy faoliyatlarida olgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, bilimga bo'lgan ehtiyojni, yangi ilmiy-texnik sohalarni tushunish qobiliyatlarini, mehnatga bo'lgan ijodiy munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Mustaqil ish, eng avvalo, oliy ta'lim muassasasi tomonidan hal etiladigan ijtimoiy vazifani amalga oshirishning asosiy vositasi - talabalarni mustaqil o'qishga o'rgatish, kasbiy faoliyat jarayonida uzluksiz ta'limni amalga oshirishdir.

Talabani mustaqil ishi nafaqat ma'lum bir fanni o'zlashtirish, balki o'quv, ilmiy, kasbiy faoliyatda ma'lum ko'nikmalarni shakllantirish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, muammoni mustaqil hal qilish, konstruktiv yechimlarni topish va muammoli vaziyatdan chiqish uchun mo'ljallangan [10, 40 b.].

I.P. Pidkasistiy fikricha, mustaqil ish bilimlarni o'zlashtirishning har bir muayyan vaziyatda muayyan didaktik maqsad va vazifaga mos keladigan o'qitish vositasidir [11, 315 b.].

Didaktik nuqtai nazardan, mustaqil ish ikki tomonlama maqsadga ega, birinchidan, bu ta'limning tashkiliy shakli bo'lib, u maxsus vaqt, joy, moddiy ta'minot, uni boshqarishni va rejalashtirilgan o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish uchun sharoitlar va shu kabilarni talab qiladi; ikkinchidan, u faol va ijodiy kasbiy faoliyat uchun asos bo'lib xizmat qiladigan o'qish-bilish faoliyati bo'lib xizmat qiladi. Bu borada o'tkazilgan tadqiqot natijalarilari ushbu muammoning yechimi turli ma'noda talqin qilinishini, ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish sharoitida uning ko'p qirraliligini hisobga olgan holda o'quv jarayoniga tegishli o'zgartirishlar kiritishni talab qilishini ko'rsatdi.

Psixologik nuqtai nazardan, mustaqil ish, eng avvalo, talabalarning faol aqliy faoliyati bo'lib, ularda aqliy faoliyatning individual uslubi shakllanadi, hal qilinayotgan o'quv



vazifalarini tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatlari rivojlanadi, o'qish, yozish va boshqa harakatlar ko'nikmalari shakllanadi. Bunda faol aqliy faoliyatning samaradorligi ko'p jihatdan bilimlarni tizimlashtirishga bog'liq.

Mustaqil ishning tarbiyaviy jihati bo'lajak mutaxassisning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini, eng avvalo, ilmiy dunyoqarash, mustaqillik, tashkilotchilik, maqsadga intiluvchanlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, kasbiy faoliyatga tayyorlik va boshqalarni shakllantirishda namoyon bo'ladi.

Bakalavriatning "Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar" yo'nalishidagi I kurs talabalariga o'qitiladigan "Axborot texnologiyalari" fani bo'yicha o'quv rejaga muvofiq jami 120 soat, shu jumladan ma'ruza mashg'ulotlari uchun 24 soat, amaliy mashg'ulotlar uchun 24 soat va mustaqil ishlar uchun 72 soat belgilangan.

Ushbu fan bo'yicha mustaqil ishni tashkil qilishni optimallashtirish uchun uning o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, o'quv faoliyatining mazmunga yo'naltirilganligini, ya'ni talabalarda qanday bilim, ko'nikmalar, motivlar, usullar shakllantirilishi kerakligini aniqlab olish kerak. Bunda nafaqat o'rganilayotgan "Axborot texnologiyalari" fanining kasbiy yo'nalishini kuchaytirishni ta'minlash, balki talabalarning auditoriyadagi o'quv mashg'ulotlarida ham, auditoriyadan tashqarida ham tegishli bilim, ko'nikmalarni egallashlari uchun shart-sharoitlar yaratilishi kerak.

Mustaqil ishni optimallashtirishning eng muhim omili - talabalarning mustaqillik rolini anglashlari, uning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini, fanning kelgusi kasbiy faoliyatga yo'naltirilganligini tushunishdir. Ushbu omil bo'lg'usi bakalavrlarning mustaqil o'qish samaradorligini oshirishning, maqsadlarini mustaqil ravishda shakllantirish qobiliyati bilan bog'liq kasbiy tayyorgarligi darajasini oshirish haqidagi tasavvurini belgilaydi. Talabalarning mustaqil ishlarini samarali bajarilishi va muayyan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi kerak.

N.Ippolitova va N.Sterxovalarning fikricha, pedagogik shart-sharoitlar "pedagogik tizimning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ushbu tizimning shaxsiy va protsessual jihatlariga ta'sir etuvchi va uning samarali ishlashi va rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim va moddiy-fazoviy muhit imkoniyatlarining yig'indisini aks ettiradi" [12, 11 b.].

V. A. Belikov o'z monografiyasida pedagogik shart-sharoitlar tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "pedagogik shart-sharoitlar - bu pedagogikada qo'yilgan vazifalarni hal qilishga qaratilgan mazmun, shakllar, usullar va moddiy-fazoviy muhitning ob'ektiv imkoniyatlari to'plami" [13, 184 b.].

V. I. Andreev pedagogik shart-sharoitlarni "tarkibiy elementlarni, usullarni (uslublarni), shuningdek o'qitishning tashkiliy shakllarini maqsadli tanlash, loyihalash va qo'llash" natijasi deb hisoblaydi [14, 124 b.].

Boshqacha qilib aytganda, pedagogik shart-sharoitlar - o'quv jarayonining turli bosqichlarida va umuman olganda, o'quv jarayoni natijasining samaradorligiga erishishni ta'minlab beruvchi pedagogik faoliyatning maxsus asoslangan va tashkil etilgan holatlari va yo'nalishlari majmuidir.

"Axborot texnologiyalari" fani bo'yicha talabalarning mustaqil ishlarni samarali bajarishlari uchun eng muhim pedagogik shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi:

– talabalarning psixologo-pedagogik va yosh xususiyatlarini hisobga olish;



- faol mustaqil ishlashga tayyorlikni shakllantirish;
- talabalarning mustaqil ishlashlari uchun zarur bo'lgan axborot ta'minotining (fannig o'quv-uslubiy majmuasi, metodik adabiyotlar, yozma metodik ko'rsatmalar va shu kabilar) mavjudligi va u bilan auditorida va auditoriyadan tashqari vaqtda ishlash imkoniyati;
- talabalarning mustaqil ishlaridagi topshiriqlarni bajarish uchun texnologik ta'minot (litsenziyalangan dasturiy ta'minot, Internet tarmog'iga ulangan kompyuterlar bilan jihozlangan xonalar) mavjudligi;
- mustaqil ish bilan bog'liq faoliyatda ish shakllari va metodlarini optimal tanlash;
- talabalarning mustaqil ishlarini bajarishning barcha bosqichlarini o'qituvchi tomonidan pedagogik qo'llab-quvvatlash, uning natijalarini nazorat qilish va boshqarish.

Talabalarning psixologo-pedagogik va yosh xususiyatlarini hisobga olish sharti. Kasbiy ta'limning asosiy xususiyati shundaki, talabalar, odatda turli xil shaxsiy xususiyatlarga ega bo'ladilar (masalan, ular bilim darajasi, mutaxassislikni o'zlashtirish uchun motivatsiya darajasi, ilgari shakllangan ko'nikmalar, mustaqil faoliyatga tayyorgarlik darajasi bilan bir-birlaridan farq qiladilar). Bularning barchasi o'quv dasturi bo'yicha mashg'ulotlarni guruhli o'qitishni sezilarli darajada murakkablashtiradi. Talabalarning ana shu o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinganida va har bir talaba o'zining shaxsiy va ta'lim imkoniyatlarini inobatga olgan holda mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rganlarida ularning individual mustaqil ishlari yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Faol mustaqil ishlashga tayyorlikni shakllantirish kasbiy ta'limining asosiy vazifalaridan biridir. "Mustaqil ishlashga tayyorlik" tushunchasi juda keng va ko'p qirrali. Tayyorlik, birinchi navbatda, o'tilgan o'quv fanlari bo'yicha bilimlar va ko'nikmalarining shakllanganligi darajasini, shuningdek, ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni o'z ichiga oladi. Bulardan tashqari, har bir talaba yetarli darajada rivojlangan umumiy ta'lim ko'nikmalariga ega bo'lishi (o'quv materiallari, adabiyotlardan mohirona foydalanish, kerakli ma'lumotlarni izlab topish, mustaqil faoliyatini oqilona rejalashtirish, kerakli o'quv va didaktik vositalarni optimal tanlash va ularni to'g'ri qo'llash va h.k.) bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan, turli xil o'quv fanlari bo'yicha istisnosiz mustaqil ishlashga tayyorlikning barcha komponentlarini malakali tarzda baholash juda muhimdir. Mustaqil ishlashga tayyorlikning psixologik komponentini aniqlash (vazifalarni sifatli bajarish uchun munosabat va motivlar, irodani namoyon qilish, aqliy faoliyatning umumiy darajasi va boshqalar) alohida qiyinchilik tug'diradi. Baholash jarayonida uning alohida tarkibiy elementiga ustunlik berish qiyin. Masalan, agar talaba yaxshi aqliy qobiliyatga ega bo'lsa, lekin shu bilan birga ish vaqtini oqilona rejalashtirishni bilmasa, tashkilotchilik, qat'iyatlilik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ijodkorlikni namoyon qilmasa, u holda uning mustaqil ishlash faoliyati natijalari past bo'lishi mumkin.

Talabalarning mustaqil ishlashga tayyorlik darajasi ehtimollik xususiyatiga ega va ularning har birining alohida tayyorligiga bog'liq. Ushbu ko'rsatkichni muntazam ravishda baholash, olingan natijalarni tahlil qilish va kerak bo'lganda uni oshirish bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rish juda muhimdir.

Talabalarning mustaqil ishlashga tayyorlik darajasini yanada ob'ektiv baholash uchun turli xil usullardan foydalanish mumkin: kuzatish, og'zaki so'rov, anketa so'rovnomalari, testlar, psixologik metodlar. Tayyorlikning quyidagi darajalarini ajratib o'tish mumkin: nazariy (zarur bilimlarga ega bo'lish) va amaliy (mustaqil ishlash ko'nikmalarining



shakllanganligi); psixologik (munosabatlar, motivlar, hissiy-irodaviy ko'rinishlar, ruhiy holatlar va boshqalar); tashkiliy (ta'minlash, rejalashtirish va boshqalar).

Talabalarning mustaqil ishlashlari uchun zarur bo'lgan axborot ta'minoti. Metodik adabiyotlar bilan ta'minlamasdan turib talabalarning mustaqil ishini samarali tashkil etish mumkin emas. Mustaqil ishlarni tashkil etish va boshqarish vositasi sifatida muayyan mustaqil ishni bajarishga oid berilgan topshiriqlar bilan birga ularni bajarish yuzasidan yozma metodik ko'rsatmalarning o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilishi muhim.

Mustaqil ish bilan bog'liq faoliyatda ish shakllari va metodlarini optimal tanlash. Mustaqil ish, odatda, reproduktiv va ijodiy faoliyat asosida bajariladi, ushbu faoliyatlarni takomillashtirish ish shakllari va metodlarini optimal tanlashga bog'liq. Talabalarda kasbiy faoliyatning asosiy xususiyatlari namoyon bo'lishi, zarur ishbilarmonlik fazilatlarini va kasbiy mehnat funksiyalarini bajarishga tayyorligi singdirilishi uchun turli shakl va usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Mustaqil ishlarni tashkil etishda o'quv topshirig'i alohida ahamiyat kasb etadi, uning tuzilishi, mazmuni va tafsilotlari talabalarni bilimlarga mos ma'lumotlarni izlab topish faoliyatiga jalb qilishga, mustaqil ishga bo'lgan qiziqishni uyg'otishga va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam berishi kerak.

“Axborot texnologiyalari” fani bo'yicha talabalarning auditoriyadan tashqari bajaradigan mustaqil ishlarini didaktik maqsadlarga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- o'rganilayotgan mavzuning mohiyati va xususiyatlarini ochib berish, mantiqiy ketma-ketlik asosida hisobot yaratishni o'rganishga yo'naltirilgan mustaqil ishlar;
- elektron hujjatlar bilan ishlash ko'nikmalarini egallashga yo'naltirilgan mustaqil ishlar;
- axborotni (matn, grafika, infografika, video va shu kabilarni) qayta ishlash ko'nikmalarini mustahkamlash, axborotni qayta ishlash texnologiyalarida aniq harakatlarning amalga oshirilishini tasvirlashni o'rganishga yo'naltirilgan mustaqil ishlar.

Axborotni qayta ishlash ko'nikmalarini mustahkamlashga yo'naltirilgan mustaqil ishlarni bajarishda mos litsenziyalangan dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyatlari yaratilganligi, Internet tarmog'iga ulangan kompyuterlar bilan jihozlangan xonalar bo'lishi muhim.

Talabalarning mustaqil ishlarini bajarishning barcha bosqichlarini o'qituvchi tomonidan pedagogik qo'llab-quvvatlash, uning natijalarini nazorat qilish va boshqarish alohida ahamiyatga ega. O'qituvchi talabalarga mustaqil ish bo'yicha aniq vazifalar qo'yish, uning hajmi, muddatlari haqida ma'lumot berish, mustaqil ishni rejalashtirish, uni minimal xarajatlar bilan amalga oshirish bo'yicha maslahatlar berish, motivatsiyani shakllantirish, rag'batlantirish, natijalarni baholash mustaqil ish samaradorligini ta'minlaydi.

Xulosa. Mustaqil ish samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, u bilan bog'liq faoliyatini rejalashtirish, o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatish qobiliyatiga bog'liq.

Mustaqil ishni bajarish sifati mavzu bo'yicha optimal vaqt miqdorini aniqlash va taqsimlash, axborot ta'minotidan foydalangan holda mavzu bo'yicha ma'lumotlarni izlab topish, axborotni qayta ishlash hamda axborotni taqdim etish jarayonlarini rejalashtirishga bog'liq.

Mustaqil ishni bajarishning tayyorgarlik bosqichida o'quv, uslubiy va moddiy-texnik vositalar (o'quv adabiyotlari, uslubiy tavsiyalar, texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar va



boshqalar bilan ta'minlash) hal qilinadi. Ularning muvaffaqiyatli hal etilishi ko'p jihatdan talabalarining mustaqil ish bilan bog'liq faoliyatlarini mohirona boshqarish, ularga asosiy va qo'shimcha ma'lumotlar bilan ishlash, dasturiy vositalarni tanlashlarida maslahat va yordam berishga bog'liq.

Mustaqil ish topshirig'ini bevosita bajarish bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi bosqich talabalarining topshiriqni bajarishga tayyorligi bilan tavsiflanadi.

Kerakli tayyorgarlikka erishishda o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyatga ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan o'ziga xos "vosita" bo'lib xizmat qiladigan ko'nikma va malakalar alohida rol o'ynaydi.

Mustaqil ishning uchinchi (yakuniy) bosqichi refleksiya (mulohaza yuritish) bosqichi bo'lib, ushbu bosqichda talabalar topshiriqlar qanchalik chuqur va har tomonlama bajarilganligini, qanday qiyinchiliklarga duch kelganligini, vaqtdan qanchalik unumli foydalanganlari tahlil qilinadi va baholanadi.

Shunday qilib mustaqil ish ta'lim jarayonining ajralmas qismi, uning asosidir. Yuqorida belgilab o'tilgan pedagogik shartlarning bajarilishi mustaqil ish samaradorligini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta'minlash uchun muhim bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

References:

1. Рубинштейн С. Л., Основы общей психологии.- СПб, 2001.- 720 с.
2. Современный словарь по педагогике [Текст]: справочное издание / сост. Е. С. Рапацевич, 2001. - 928 с.
3. Савенков, А. И. Путь к одаренности: исследование поведения дошкольников : учебное пособие. - СПб.: Питер Принт, 2004. - 272 с.
4. Айзенберг А.Я. Самообразование: история, теория и современные проблемы: Учеб. пособие для студентов вузов. – М.: Высшая школа, 1986. – 128 с.
5. Юдакова, С. В. Готовность студентов вуза к профессионально-педагогическому самообразованию: монография. С. В. Юдакова ; Мин-во образования и науки Рос. Федерации, ФГБОУ ВПО «Владим. госуд. ун-т им. А. Г. и Н. Г. Столетовых). – Владимир: ВИТ-принт, 2013 – 148 с.
6. Смолина С.Г. Самостоятельная работа как средство формирования информационной компетентности студентов университета // Научные и технические библиотеки.– 2009.– № 12.– С.11-16.
7. Зимняя И. А. Педагогическая психология: Учебник для вузов. - 3-е издание, пересмотренное. - М.: МПСИ; Воронеж: МОДЭК, 2010. - 448 с.
8. О. Б. Томашевская, Н. А. Малиновская. Сущность и содержание самостоятельной работы студентов в условиях вуза // Вестник Балтийского федерального университета им. И. Канта. 2011. Вып. 11. С. 112—117.
9. Георге, И. В. Формирование профессиональных компетенций студентов образовательных организаций высшего образования на основе организации самостоятельной работы: монография /И. В. Георге. – Тюмень: ТИУ, 2016. – 143 с.
10. Самостоятельная работа студентов [Текст]: учебно-методическое пособие/ А.С. Зенкин, В. М. Кирдяев, Ф. П. Пильгаев, А. П. Лащ. – Саранск: Мордов. ун-т, 2009. – 210 с.



11. Педагогика. Учебное пособие для студентов педагогических вузов и педагогических колледжей / Под ред. П.И. Пидкасистого. - М: Педагогическое общество России, 1998. - 640 с
12. Ипполитова, Н. В. Анализ понятия «педагогические условия» : Сущность, классификация [Текст] / Н. В. Ипполитова, Н. С. Стерхова // General and Professional Education, 2012 —№ 1 - pp. 8–14.
13. Беликов В.А. Образование. Деятельность. Личность: монография. – М.: Академия Естествознания, 2010. – 310 с.
14. Андреев В.И. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития. 2-е изд. – Казань: Центр инновационных технологий, 2000. – 608 с.